

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13765424>

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Eshnazarova Gulzoda Jo‘raqulovna,  
Raximov Asomiddin Anarbayevich,  
Usanov Sherzod Abdulaxatovich.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Pedagogika kafedrasи o‘qituvchilari

*Annotation:* Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyat asosida kompetentli kadr etib shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammosi sifatida tadqiq etilgan.

*Key words:* Bo‘lajak o‘qituvchi, pedagog, talaba, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, axloqiy, tarbiya, tayyorlash, bilim, madaniyat, kompetentli kadr, shakllantirish, jamiyat, ta’lim.

**Аннотация:** В статье рассматривается формирование будущих учителей как компетентного кадра на основе духовно-просветительской деятельности как наиболее актуальной проблемы современности.

**Ключевые слова:** Будущий учитель, педагог, ученик, духовно-просветительская деятельность, мораль, воспитание, воспитание, знание, культура, компетентные кадры, образование, общество, воспитание.

*Annotation:* The article examines the formation of future teachers as a competent staff based on spiritual and educational activities as the most urgent problem of today.

*Key words:* Future teacher, pedagogue, student, spiritual and educational activity, moral, education, training, knowledge, culture, competent staff, formation, society, education.

Milliy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘oya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ajdodlarimizning bebaho merosi kabilar ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat asosida barkamol avlod shaxsni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

«Ma’rifat -deb ta’kidlanadi, Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘atida, (arabcha «arafa» - «bilmoq» so‘zidan)-ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat»<sup>1</sup>.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat ishlarining mohiyati bu-ma’naviy ildizlarini his etish, milliy g‘urur va o‘zligini anglashga, ularning jahon madaniyati xazinasiga qo‘shadigan hissalarini oshirishga xizmat qiluvchi manba demakdir.

Xalqning, jamiyatning ma’naviy, ilmiy, madaniy merosni egallashining ko‘lami, xususiyati va natijalari ko‘p jihatdan istiqlol ma’naviyatiga bog‘liqdir. Chunki bunda ma’naviyat insoniy qadriyatlarga to‘g‘ri yo‘nalish topib beruvchi «yo‘lchi yulduz» bo‘lib xizmat qiladi va xalqimizning ma’naviy merosini o‘rganishda jamiyatimiz uchun bugungi kunda va istiqbolda zarur bo‘lgan ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim rolб o‘ynaydi.

“Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat”- ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar”<sup>2</sup>. Ta’rifga ko‘ra ma’naviyat insonning falsafiy-huquqiy, diniy-axloqiy tasavvurlarini aks ettiruvchi manba hisoblanadi, shunga asosan u kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan va ularni hamjihatlikka erishishga yordam beradigan, hamkorlikning yangi ufqlarini ochadigan boylikdir. Ma’naviyat insonga hayotda barqarorlik bag‘ishlaydi, uning qarashlari shunchalik boylik orttirish yo‘lida kun ko‘rishga yo‘l qo‘ymaydi, ma’naviyat moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi.

<sup>1</sup> Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro’ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To’ldirilgan uchinchi nashri / - T.: «Sharq», 2006. - 116 b.

<sup>2</sup> Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro’ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To’ldirilgan uchinchi nashri / - T.: «Sharq», 2006. - 144 b.

Ma’naviyatimiz, tariximiz, qadriyatlarimiz asosini tashkil etib, u yoshlarda bu boyliklarga hurmat e’tibor bildirish va ularni yanada rivojlantirish, keljakda iqtisodiy taraqqiyoti kuchli mamlakatni qurishga undab, yoshlarimizda zamonaviy bilimlarni, yuksak tajribalarni egallahga chorlaydi. Ma’naviyat tushunchasining mohiyati shundan iboratki, u turli xalqlar va mamlakatlar kishilarni qon qardosh qiladi. Bizning ma’naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. U - inson uchun butun bir olam. Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Ma’naviyatning ma’nosи yer, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, oila, ota-onा, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlikdir. Ma’naviyat juda chuqur va keng ma’noga ega bo‘lib, insonni inson qilib, uni boshqa jamiki jonli mavjudotlardan tubdan farqlab, keskin ajratib turadigan ong, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat, saxovat rahm-shavqat, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik tabiatni e’zozlash, ilm-fanni, adabiyot, san’at va madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o‘zi va o‘zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi madaniyati, urf-odatlari va an’alarini hurmat qilish va qadrlash singari ajoyib xislat va fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat so‘zining o‘zagi - ma’nodir. U ma’ni deb ham ishlatiladi. Dunyodan ma’no izlagan kishi ma’naviyat sari talpinadi.

Vatan tuyg‘usi kitobida yozilishicha “Ma’naviyat-jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”<sup>1</sup>. Ma’naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq eta boradi va aksincha, ma’naviyat qashshoqlansa, jamiyat bora bora tanazzulga yuz tutadi. Ma’naviyatsiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi.

Ma’naviyat jamiyat va millat ravnaqining boy omilidir va poydevoridir. Demak, ma’naviyat nihoyatda keng tushuncha bo‘lib, ma’rifat, madaniyat, axloq, san’at,

<sup>1</sup> Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuygusi / A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo’raev. -T.: «O’zbekiston», 1996. - 46 b.

adabiyot kabilarni o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun ham mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat masalalariga kuchli e’tibor berilishining boisi ham ana shunda.

“Ma’naviyat”, “ma’rifat” va “faoliyat” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi. Ular birgalikda yaxlit bir tushunchani tashkil qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat - ma’naviy ildizlarini his etish, milliy g‘urur va o‘zligini anglashga, ularning jahon madaniyati xazinasiga qo‘sadigan hissalarini oshirishga xizmat qiluvchi manba demakdir.

Xalqning, jamiyatning ma’naviy, ilmiy, madaniy merosni egallashining ko‘lami, xususiyati va natijalari ko‘p jihatdan istiqlol ma’naviyatiga bog‘liqdir. Chunki bunda ma’naviyat insoniy qadriyatlarga to‘g‘ri yo‘nalish topib beruvchi «yo‘lchi yulduz» bo‘lib xizmat qiladi va xalqimizning ma’naviy merosini o‘rganishda jamiyatimiz uchun bugungi kunda va istiqbolda zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning mohiyati respublikamizda yashayotgan barcha xalqlarning o‘z intilishlari va gullab-yashnashlarida ulami birlashtiruvchi, buyuk umuminsoniy qadriyatlар-millatlararo tinchlik va fuqarolar totuvligi, qonunchilik, ijtimoiyadolat, inson xuquqlarining ustunligiga erishishga xizmat qila oladigan mafkurani shakllantirishda hamkorlik qilish, ilg‘or milliy an'analar, urf-odatlar, barcha xalqlarning madaniyatlarini rivojlantirish, ular o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o‘zaro bir-birlariga ta’sir doirasini kengaytirish va bir-birlarini boyitishlariga imkoniyat yaratib berish; O‘zbekiston va jahon xalqlarining madaniyatları o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, hamkorlikdagi harakat, bir-birini boyita borishni mustahkamlash va rivojlanirishdir.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat mohiyatini mustahkamlash - bu uning zamonaviy madaniy jihatdan ravnaq topgan davlat, jamiyat sifatida rivojlanishida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish demakdir. Bu o‘rinda shu jamiyatning a’zosi bo‘lgan har bir inson nazarda tutiladi.

Ma’naviyatsiz moddiy farovonlikka ham, umumtaraqqiyotga ham erishib bo‘lmaydi, ma’naviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi.

Darhaqiqat erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosida amalga oshadi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonida esa o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqeа va xodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlar tarbiyalanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat oliy o'quv yurtining kundalik hayotida, mehnat, ijodiy, ommaviy xullas hamma-hamma ishlarida amalga oshirilishi va O'zbekiston fuqarosining e'tiqodli, o'z Vataniga haqiqiy sodiq bo'lishiga qaratilishi kerak. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston bayrog'i, gerbi, O'zbekiston madhiyasi – bu o'zbekligimiz, haq-huquqimiz, huriyatimiz, ozodligimiz, mustaqilligimiz ramzi ekanligini, istiqlol va istiqbol, O'zbekistonning mustahkam poydevorini mustahkamlash – ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning maqsadi xalqimizning milliy merosiga vorislik va umumbashariy boyligini ijro eta oladigan, qadrlaydigan madaniyatli, ma'rifatli barkamol shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z talabalarida iymon, e'tiqod, sadoqat kabi odamiylik fazilatlarini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalashi lozim. Bugungi kunda har bir talaba xalqimizning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyati, nodir qadriyatları, an'analari, urfatlarini ularning mazmunidagi axloq, odob, insof, iymon, vijdon, diyonat,adolat, insonparvarlik kabi kurtaklar milliy istiqlol mafkurasi tufayli yanada rivojlanayotganligini, ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishi lozim. Chunki bugungi talaba milliy istiqlol mafkurasi asosida O'zbekistonning axloqli, odobli jahon aholisining hurmatiga sazovor bo'lishi lozim. Shunday ekan, uzoq yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat degan tushunchani na o'quv jarayonida, na ilmiy tadqiqot ishlarida chuqur o'rganilmaganligini nazarda tutib, oliy ta'lim talabasida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ehtiyoji sezilmoqda. Zero, u milliy istiqlol g'oyasi asosida barkamol

shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham barkamol avlod shaxsida milliy ong, milliy g‘urur, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi, o‘z Vatan va xalqi bilan faxrlanish hislari, milliy qadr-qimmat, mas’uliyat, vatanparvarlik va xalqparvarlik-tuyg‘usini shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga milliy an’analarni, ma’rifat tajribalarini ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish talabalarni, xalqimizning ma’naviy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa mustaqil O‘zbekistonning istiqboli va istiqlolini mustahkamlash va rivojlantirishda, jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvligini ta’minlaydi. Insonning ruhiy poklanishi va yuksalishiga da’vat etadi. Inson ichki olamini boyitadi. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning asosiy maqsadi – barkamol avlod shaxsini voyaga yetkazish, ularni jamiyatimizning haqiqiy fuqarosiga, ongli fidoyisiga aylantirishdir.